



FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI

*Asqarov Anvarjon**FarDU Sirtqi ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Oila - ma'daniyat va tarbiyaning eng kichik birlashmasi hisoblanadi. Farzand tug'ilibdiki, yangi xulq-atvorni avvalo ona, keyinroq esa ota obrazi orqali o'zlashtiradi. Ota-onan uchun farzand tarbiyasi birlamchi vazifa sanaladi. Ushbu maqolada har bir yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishida oilaning o'rni, farzand tarbiyasida ota-onaning ahamiyati, oilaviy munosabatlar borasida olimlar fikrlari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: rollar nazariyasi, xulqiy o'zlashtirish, sog'lom avlod, erkin fikrlash, munosabatlar uyg'unligi.

Annotation: *The family is the smallest Association of culture and upbringing. A child is born who acquires new behavior first through the image of the mother, and later through the image of the father. Raising a child for a parent is considered a primary task. This article describes the role of the family in the formation of each younger generation as a harmonious person, the importance of parents in the upbringing of children, reflections on the opinions of scientists on family relations.*

Keywords: *role theory, behavioral assimilation, healthy generation, free thinking, relationship harmony.*

Аннотация: Семья считается наименьшим объединением культуры и воспитания. Ребенок рождается, чтобы усвоить новое поведение сначала через образ матери, а затем через образ отца. Для родителя воспитание детей считается первоочередной задачей. В данной статье изложены размышления о роли семьи в становлении каждого подрастающего поколения как гармоничной личности, о значении родителей в воспитании детей, мнения ученых о семейных отношениях.

Ключевые слова: *теория ролей, поведенческая ассимиляция, здоровое поколение, свободомыслие, гармония отношений.*



Har bir jamiyat eng kichik bo'g'in atalmish oilalardan tashkil topgan. Oilaning asosiy vazifalaridan biri naslni davom ettirish va barkomol shaxslarni tarbiyalash. Muqaddas dinimizga ko'ra farzand har bir insonga Allah tomonidan berilgan buyuk ne'mat hisoblanadi. Har bir farzand kelajak bunyodkori, shuning uchun ham ota-onalar o'z oldida qanday ma'suliyatli vazifa turganligini his qilishi lozim. Oilaning har bir a'zosi o'z o'rni va vazifasiga ega bo'lib, bu haqida amerikalik ruhshunos E.Bern va nemis ruhshunosi K.Levin "shaxs ijtimoiy rollar nazariyasi"ni ishlab chiqqan. Unga ko'ra, odam bola, ota-onva katta odam rolida rolida bo'ladi. Bola rolini faqatgina bolalarni o'zini tutishi kabi tushunib olmaslik kerak, bola roli katta odamning o'zini boladek his etishi va bola sifatida tutishida namoyon bo'ladi. Ota-onva roli esa odamning boshqa kishilar oldida o'zini ma'suliyatli tutishi, o'zgalarga va oila a'zolariga nisbatan mexr-oqibatida ko'rish mumkin. Katta odam rolidagi inson esa nasihatgo'ylikka moyil, har bir harakatni o'ylab qiladigan va atrofdagi narsa va hodisalarga nisbatan chuqur fikrllovchi bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oilaning o'rmini alohida ta'kidlab quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bu – oiladir". Inson uchun- eng katta tarbiya manbai oila bo'lib, tarbiya berishda asosiy vazifani ona bajaradi. Shuning uchun ham qadimdan ayollarga Qur'onidan, tajviddan, fiqhdan, tarbiyadan va juda ko'p ijtimoiy va diniy bilimlar yoshlik chog'idan o'rgatilgan. Otalarning asosiy vazifasi esa oilani moddiy tomonidan ta'minlash, ularning zaruriy ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'lган. Ota- ona bolaga tarbiya berayotganda unga qaysi tomonidan ta'sir eta olishini inobatga olishi lozim. Bu o'rinda Xoja Samandar Termizi: "Farzandlarni otasining xizmatlari tufayli emas, o'zlarida bor qobiliyatiga asoslanib tarbiyalash lozim", - deya fikr bildirgan. Bola uch yoshdan boshlab, ota-onva yaqinlarining xatti-harakatlarini beixtiyor kuzatish orqali o'zlashtirib boradi. Aynan bu davrdan boshlab har bir ota-onva o'z ma'suliyatini yanada ortiqroq his qilishi lozim. Bola o'zlashtirgan xulq-atvorni o'yinlar orqali ifodalab beradi. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, oilada dominantlik otani qo'lida bo'lsa bunday oilaning qiz va o'g'il farzandlari o'yinlarda yetakchilikni o'z qo'liga olishga harakat qilishadi, ularda liderlik qobiliyati yoshlikdan shakllanib boradi. Oila



a'zolarining bir-birlariga qo'pol munosabatlari, aldashlar, yolg'on so'zlar, noto'g'ri xatti-harakatlar, doimiy urushlar oilada nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi va bolalarning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy tarbiyaning asosiy uchta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: demokratik, avtoritar va konvensiya. Avtoritar uslubda, ota-onaning har bir xohish va istaklari bola uchun qonun hisoblanadi. Bunday oilada tarbiya topgan bolalar asosan bo'y sunuvchan, ish faoliyatida asosan bajaruvchi obrazida bo'ladi. Uning asosiy ehtiyojlari qondirilmay qolib keladi, ko'plab holatlarda buning natijalarida farzandlarda doimiy stresslar kelib chiqadi. Demokratik uslubda, ota-onalar farzand tarbiyasida mustaqillikni ham, intizomni ham teng olib borishga harakat qilishadi. Bu kabi tarbiya usuli tanlangan oilalarda bolalar ijobiy harakatlatni amalga oshirishganda taqdirlanadi. Noto'g'ri harakatga yo'l qo'yishganlarida esa jazolanishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Klochko V.E. Qadriyatlarni axloqiy tarbiya mexanizmi sifatida shaxslashtirish // Talaba shaxsining axloqiy asoslarini shakllantirish yo'llari. Muammolar. Metodologiya Tajriba: konferentsiya tezislari. Barnaul, 2007
2. Mitrikas A. Oila qiymat sifatida: Yevropa mamlakatlarida qiymat tanlashdagi o'zgarishlar va istiqbollari. - №1. -: 2003.
3. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.— 2006.
4. Akramova F. A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2006
5. Oila psixologiyasi / Akad.litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. G.B.Shoumarov va b. G.B.Shoumarovning tahriri ostida. – Toshkent: "Sharq", 2008. – 48-62-betlar.
6. G'oziev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2003.
7. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil
8. Usmanova E.Z. O'quvchilarning mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? -«Pedagogika va yosh psixologiya» ilmiy-ommabop seriya, 2000.